



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

**BUYRUQ**

2023-yil "17" oktabr

159-sonli

Toshkent sh.

**Vazirlik vakillarining xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tassaruf etish tartibi, tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish, ularni o'tkazish va vakillik xarajatlarini amalga oshirish to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida**

O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi vakillarining xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tassaruf etish tartibi, tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish, ularni o'tkazish va vakillik xarajatlarini amalga oshirishni tartibga solish maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. "Vazirlik vakillarining xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tassaruf etish tartibi, tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish, ularni o'tkazish va vakillik xarajatlarini amalga oshirish to'g'risidagi Nizom" ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Barcha xodimlar mazkur Nizom talablariga qat'iy rioya etilishi uchun shaxsan javobgarligi belgilansin.
3. Ichki audit, komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi (Bahodirov) Nizomda belgilangan talablar bajarilishi, qat'iy ijrosi taminlanishini nazorat qilib borsin.
4. Moliya-iqtisod va xo'jalik faoliyati boshqarmasi (Alimardanov) xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olingan sovg'alar hisobi yuritilishini, but saqlanishini va ulardan samarali foydalanilishini ta'minlasin.
5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari A.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



Sh.Xamrayev